

## YER TUZISH VA YER TUZISHNING IQTISODIY MOHIYATI

V.A.Maxmirzayev

*“O`zdavyerloyiha” davlat ilmiy loyihalash institutining  
“Sirvilyerloyiha” bo`linmasi direktori*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada yer tuzish va yer tuzishning iqtisodiy mohiyati, yer tuzishning istiqbolli loyihalari, yer tuzishda xuquqiy, texnik, ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy-xo`jalik masalari haqida so`z boradi.

**Kalit so`zlar:** O`zbekiston Respublikasi, yer resurslari, yer huquqi, yer muhofazasi, yer munosabatlari, qonun, yuridik, yer kodeksi, moddalar, yer tuzish, topografik, geodezik, aerofotogeodezik, tuproq, munosabatlar.

Yer tuzish tartibi — mamlakatda yerga bo`lgan munosabatlarni tartibga solish va mukammallashtirish, yerni ishlab chiqarish vositasi sifatida muhofaza qilish va undan samarali foydalanishga qaratilgan davlat tadbirlari tizimi.

Yerdan to`liq ilmiy asoslangan tarzda oqilona va samarali foydalanishni tashkil etish, dehqonchilik madaniya-tini oshirish va yerlarni muhofaza qilish maqsadlarini ko`zlaydi. Yer tuzish loyiha qidiruv, joy tafsilotini (s`yomka) va dala tadqiqoti ishlarini o`z ichiga oladi, uni yer tuzuvchi tashkilotlar amalga oshiradi. Yer tuzish. yerlardan foydalanish va ularni muhofaza qilishni tashkil qilishga, yer resurslarini hisobga olish va baholashga, qulay ekologik muhitni vujudga keltirishga va tabiiy landshaft larni yaxshilashga, yer tuzishning hududiy va ichki xo`jalik yer tuzish. rejalarini tuzishga qaratilgan tadbirlar tizimini o`z ichiga oladi.

Yer tuzishning iqtisodiy (yerni asosiy ishlab chiqarish vositasi sifatida tashkil etish), huquqiy (yerdan foydalanish sohasida davlat organlari qarorlarini amalga oshirishga qaratilgan davlat tadbirlari tizimi majmui), texnikaviy (loyiha qidiruv, joy tafsilotini tasvirlash va dala tadqiqoti kabi texnik ishlarni amalga oshirish) masalalari mavjud.

Yer tuzish istiqbolga mo`ljallangan, loyihalash oldidan, xo`jaliklararo hamda ichki xo`jalik turlariga bo`linadi. Istiqbolga mo`ljallangan va loyihalash oldidan amalga oshiriladigan yer tuzishda respublika va mintaqalarning yer-suv resurslaridan foydalanish hamda ularni muhofaza qilish chizmalari, tumanlar va viloyatlar yer tizimi chizmalari tayyorlanadi, tuproq unumdorligini oshirish, yerlardan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish bilan bog`liq istiqbol rejalarini ishlab chiqiladi.

Xo`jaliklararo yer tuzishda joyning o`zida ma`muriy birliklar (qishloq, tuman, shahar, viloyat) chegaralari belgilanadi, yerlarning joylashishidagi noqulayliklarni bartaraf etgan holda yer egalari, yerdan foydalanuvchilar, ijarachilar va mulkdorlarning yangi yer uchastkalarini tashkil qilish va mavjud yer uchastkalarini tartibga solish

loyihalari tuziladi, yer munosabatlariga doir turli hujjatlar, ish loyihalari tuziladi, yerlarni baholash tadbirlari va boshqalar o'tkaziladi.

Ichki xo'jalik yer tuzish. turli qishloq xo'jaligi korxonalarini, muassasalari va tashkilotlarining hududini ichki xo'jalik negizida belgilab olib, ilmiy asoslangan almashlab ekishni joriy qilish, barcha qishloq xo'jaligi yerlarini (pichanzorlar, yaylovlar, bog'lar, tokzorlar va boshqalar) joylashtirish, tuproq eroziyasiga qarshi kurash tadbirlarini ishlab chiqish, shuningdek, sug'oriladigan yerlarni to'la rekonstruksiyalashdan iborat.

Yer tuzish tarkibida topografiya-geodeziya, haritagrafiya, tuproq, agrokimyo, geobotanika jihatidan, tarixiy-madaniy va boshqalar yo'nalishlarda ham tekshirishlar olib boriladi. Yer tuzish jarayonida foydalanishni qulaylashtirish uchun chegaralari turg'un bo'lgan optimal o'lchamdagi ixcham maydonlar tashkil etiladi. Ayni paytda qishloq xo'jaligi korxonalarining ichki yer tuzish ishlari sug'orish shaxobchalari va zovurlar tarmog'ini qayta qurish asosida takomillashtiriladi, almashlab ekish joriy qilinadi, hamma ekin maydonlari batafsil belgilab qo'yiladi.

Yer tuzish ishlarini bajarishda tumanlar va xo'jaliklarning tabiiy, iqtisodiy va meliorativ sharoitlari, ishlab chiqarish hajmi, xo'jaliklar va ularning bo'linmalaridagi ixtisoslashuv, tarmoqlar nisbati va ularning rivojlanish ko'rsat-kichlari, ishchi kuchi va ishlab chiqarish vositalari bilan ta'minlanganlik, aholining joylashuv tizimi, suv resurslari, sug'orish tarmoqlarining holati va boshqalar hisobga olinadi.

Yer tuzish bo'yicha belgilangan hamma tadbirlar qishloq xo'jaligi, suv xo'jaligi va turar joy qurilishiga zarur kapital sarflar hisob-kitoblari bilan asoslab beriladi.

Insoniyatning mavjudligi negizida ozuqa, uy-joy va boshqa moddiy ehtiyojlarga bo'lgan talabni qondirishga qaratilgan ongli faoliyat yotadi. Uning asosiy shartlari orasida mehnat predmeti, qishloq xo'jaligida esa bir vaqtning o'zida mehnat vositasi va asosiy ishlab chiqarish vositasi hisoblanadigan yer birinchi darajali ahamiyatga ega, chunki u har xil ish qurollari bilan ishlov berish va o'z unumdorligi yordamida o'simliklarga ta'sir etadi, mahsulot yetishtirilishiga imkon yaratdi.

Ishlab chiqarish jarayonini boshlash uchun ishchi kuchini yer va boshqa ishlab chiqarish vositalari bilan bog'lash va jamiyatni aniq tashkil etish zarur. Shuning uchun ham jamiyatning har bir rivojlanish pog'onasida yerni bo'lish, qo'shish va uni mehnat jarayonida boshqa ishlab chiqarishi vositalariga bog'lash va moslashtirish davom etib kelgan.

Dastlab, bu jarayon tasodifiy xarakterga ega bo'lgan va ibtidoiy jamoada mevalar, qo'ziqorinlar yig'ish, ov qilish, keyinchalik chorvachilik va dehqonchilikda foydalanish uchun yerlarni chegaralashda namayon bo'lgan, keyinroq esa u yerni taqsimlash va hududni tashkil etish bo'yicha ongli faoliyatga aylangan. Bu faoliyat keyinchalik Yer tuzish nomini olgan.

«Yer tuzish» nomi birinchi bor rus tilida (Zemleustroystvo) 1906 y. qayd qilingan, undan ilgari yerni taqsimlash bilan bog'liq bo'lgan ishlar chegaralash (mejevaniye) deb atalar edi. Chegaralash (mejevaniye) deganda - qonuniy ravishda yer mulklarini chegaralash va yerga bo'lgan huquqni rasmiylashtirish tushunilgan. Shunday qilib, chegaralash yordamida davlat yerning hisobini olib borishni yo'lga qo'ydi, yer egalari va yerdan foydalanuvchilarni soliqqa tortish va yerdan foydalanishni nazorat etish uchun ularni ro'yxatga oldi, ularning huquqlarini himoya qildi va mulkchilik huquqining bir odamdan ikkinchi odamga o'tishi bilan bog'liq ishlarni yengillashtirdi.

Ushbu maqsaddan kelib chiqib, chegaralash o'z ichiga hujjatlarni rasmiylashtirish va ro'yxatga olish, yer egaliklari va yerdan foydalanuvchilar yerlari planini tuzish, yerlarni o'lchash va baholash, yer maydonlarini hisoblash va shunga o'xshash huquqiy va texnik yer o'lchash ishlarini qamrab olgan. Yer egalarning manfaatlari mavjud chegaralarni mustahkamlash yo'li bilan emas, balki yerlarni qayta taqsimlash orqali qondirilgan vaziyatlarda, ya'ni ularning har biri oldingi yeriga teng, lekin xo'jalik yuritishga qulay shakldagi va chegaralardagi yerlarni olishi bilan bog'liq ishlar majmui yer tuzish deb atala boshladi.

Bu vaqtda yer tuzishning iqtisodiy tomoni birinchi o'ringa qo'yila boshladi. Keyinchalik eca «Yer tuzish» va «Chegaralash» orasidagi farq yo'qoldi. Yer egaliklari va yerdan foydalanuvchilarning yangilarini tashkil etish, mavjudlarini qayta tashkil etish va ularning hududlarini tuzish ishlari yer tuzish loyihalari asosida amalga oshirilganligi uchun chegaralash har xil tabiiy va iqtisodiy sharoitlarda har xil maqsad va vazifalarni ko'zlab yer mulkchiligini tuzish maqsadida o'tkaziladigan murakkab yer tuzish ishlarining bir bo'lagi edi xolos.

Bundan tashqari, yer tuzish jarayoni nafaqat yerlarni, balki mehnat resurslarini, hududni injenerlik jihozlash ob'ektlarini va yer bilan bog'liq bo'lgan boshqa ishlab chiqarish vositalarini (irrigatsiya va melioratsiya tarmoqlari, yo'llar, suv bilan ta'minlovchi manbaalar va boshq.) qamrab ola boshladi, natijada yer tuzish ishlari tarkibi tez orada sezilarli darajada kengaydi.

1927 yili 20 noyabrda qabul qilingan «Yer kodeksida» unga quyidagi vazifalar yuklandi:

- davlat tashkilotlari, korxonalar va muassasalariga, shaharlar va shahar tipidagi posyolkalarga, dehqonlarning mehnat birlashmalariga hamda maxsus shartlar asosida (ijara va boshqalar) boshqa tashkilotlarga, jamoalarga va fuqarolarga foydalanish uchun yer ajratish;

- maxsus yer fondlarini tashkil etish va bir fond yerlarini boshqasiga o'tkazish;
- davlat va jamiyat ehtiyojlari uchun yerlarni qaytarib olish;
- shaharlar chegaralarini belgilash;

•yerdan foydalanuvchi jamoalar yerlarini bo'lish, ayrim xo'jaliklarga (oilalarga) va ularning guruhlariga yer ajratib berish, yerdan foydalanuvchi jamoalarning barcha yoki ayrim yer turlarini xutor va oilaviy uchastkalarga bo'lish;

•yakka mehnatkash dehqon xo'jaliklari (oilalari) yerlarini bo'lish;

•ayrim yerdan foydalanuvchilar yerlarining bir necha joyda joylashgan bo'laklardan iboratligini va chegaralaridagi kamchiliklarini, yer maydoni shaklidagi va boshqa yerdan foydalanishdagi noqulayliklarini tugatish;

•yo'llarni joylashtirish, o'rnini o'zgartirish yoki tugatish (buzish), chorva mollarini sug'orish uchun joy ajratish va yer turlarini tubdan yaxshilash (melioratsiyalash) ishlarining amalga oshirilishi sababli, yerdan foydalanuvchilarning o'rnini o'zgartirish;

•qishloq aholi yashash joylarini qayta rejalash;

•volostlar (tumanlar) chegaralarini belgilash va o'zgartirish.

Keyinchalik kollektivlashtirish (jamoalashtirish) va yirik qishloq xo'jalik korxonalarini barpo etilishi natijasida yer tuzish ishlari qatoriga xo'jalikda ichki yer tuzish kirib keldi. Uning mazmuni qishloq xo'jalik korxonalarida almashlab ekishni joriy etish, ishlab chiqarishni, mehnatni va boshqaruvni oqilona tashkil etish, yer turlarini, almashlab ekish maydonlarini joylashtirish va ularning hududlarini tashkil etish ishlarini o'z ichiga olgan xo'jalik hududini ilmiy asosda tashkil etishdan iborat edi.

Shunday qilib, yer tuzish o'zida huquqiy, texnik, xo'jalik, tashkiliy va iqtisodiy mazmunga ega ishlarni mujassamlashtirgan murakkab ishlar majmuasiga aylandi. Yer tuzishning ayrim tomonlarini yuqori qo'yish natijasida uni har xil tushunishlar kelib chiqdi. Dastlabki vaqtlarda yer tuzishni, uning mohiyatini, vazifalarini va mazmunini ma'muriy-huquqiy, ijtimoiy-texnik va xo'jalik-tashkiliy ishlaridan iborat deb tushunish ustunlik qilardi.

Prof. P.N.Pershin, I.D.Shuleykin, A.D.Shuleykin, S.A.Udachinlar yer tuzishni bir tomonlama tushunishning noto'g'riligini ko'rsatishib, yer tuzish tushunchasiga uning texnik, huquqiy va iqtisodiy tomonlarini kiritish zarurligini ko'rsatishgan.

Shuning uchun ham, akademik S.A.Udachin «Yer tuzishni loyihalash» kitobining 4-nashrida yer tuzishning iqtisodiy mohiyatini ko'rsatib, shunday yozgan edi «...yer tuzish mamlakatimizda yer munosabatlarini tartibga solish, kengaytirilgan sotsialistik ishlab chiqarish uchun har bitta sotsialistik qishloq xo'jalik korxonasida va butun xalq xo'jaligida yerdan ishlab chiqarish vositasi sifatida foydalanishni oqilona tashkil etish bo'yicha davlat tadbirlari tizimidir».

Bu tushincha yer tuzuvchilar tomonidan qabul qilingan bo'lishiga qaramasdan huquqshunoslar tomonidan tanqidga uchradi. Yer tuzishning nisbatan to'laroq va zamonaviy, uning iqtisodiy mohiyatini ko'rsatib turuvchi tarifini professorlar V.P.

Troitskiy va S.A.Avezbayevlar berishgan (Yer tuzishning ilmiy asoslari.-T.: TIQXMII, 1996. 24 b.).

Ular yer tuzishni quyidagicha tariflaydilar: «Yer tuzish - bu ijtimoiy-iqtisodiy jarayon bo'lib, yerdan foydalanish, uni muhozafa qilishni tashkil etish, yer egaliklari va yerdan foydalanuvchilarni, maxsus yer fondlarini tashkil qilish va tartibga solish, qishloq xo'jaligi korxonalarini va dehqon xo'jaliklari xududlarini tashkil qilish, tabiiy landshaftlarni yaxshilash va maqbul ekologik muhit yaratishdir».

Yer tuzishda xuquqiy, texnik, ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy-xo'jalik masalari yechiladi. Bu masalalar ichida iqtisodiy masalalar asosiy hisoblanib, ular yer tuzishning mohiyatini ochib beradi.

Bunday xulosaga quyidagilar sabab bo'ladi. Birinchidan, yer tuzish keng ma'noda ijtimoiy ishlab chiqarishning tarkibiy qismi bo'lib, yer bilan ajralmas bog'liq ishlab chiqarish vositalarini joylashtirish va hududni tashkil etishning ijtimoiy-iqtisodiy jaryoni sifatida namoyon bo'ladi.

Demak u ishlab chiqarish munosabatlari va ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanish darajasi bilan doimiy bog'liq va ob'ektiv ta'sir etuvchi iqtisodiy qonunlarga (qiymat qonuni, proporsional rivojlanish qonuni, vaqtni tejash qonuni va boshq.) ta'sirida bo'ladi.

Ikkinchidan, ma'lumki, jamiyatning rivojlanish qonunlari odamlarga to'g'ridan-to'g'ri emas, balki, ularning manfaatlari orqali ta'sir etadi. Shuning uchun xam yer tuzish davlat maqomiga ega va davlat ijrochilik hamda qonunchilik xokimiyatlari nazorati ostida fuqorolar manfaatlari yo'lida amalga oshiriladi. Siyosiy, ishlab chiqarish, ijtimoiy va iqtisodiy manfaatlar tizimida iqtisodiy manfaatlar ustivorlikka ega. Shuning uchun ham har doim yer tuzishning vazifalari bir tomondan jamiyat, ayrim jamoalar va fuqorolar iqtisodiy manfaatlarining birligini ta'minlash, ikkinchi tomondan esa, jamiyat manfaatlarining ustivorligini saqlash talablariga javob beradigan qilib yerni taqsimlashdan iboratdir.

Yer har doim manfaatlar qarama-qarshiligi ob'ekti bo'lgani uchun yer tuzish uni taqsimlash va foydalanishni tashkil etish mexanizmi sifatida hamma vaqt siyosiy kurashlar markazida bo'lib keldi.

Uchinchidan, yer tuzishda yer, yerdan foydalanuvchilar va yer egalari orasida, ular orqali esa xalq xo'jaligi tarmoqlari (sanoat, transport, qishloq xo'jaligi va boshq.) orasida taqsimlanadi. Keyin yer egaliklari va yerdan foydalanuvchilar yerlarida ichki yer tuzish o'tkaziladi, ishlab chiqarish ob'ektlari, aholi yashash joylari, yo'llar, kanallar, yer turlari (haydalma yerlar, daraxtzorlar, yaylovlar va boshq.), almashlab ekish massivlari va boshqalar joylashtiriladi.

Bunda yer har xil vazifalarni bajarishi mumkin. Xom ashyo va mahsulotlarni qayta ishlovchi sanoat korxonalarida yer birinchi navbatda mehnat jarayoni sodir bo'ladigan joy (basis) hisoblanadi. Bunda uning tuproq qatlami, yer osti boyliklari,

o'rmon va suvlari kabi xususiyatlari mahsulot ishlab chiqarishga deyarlik ta'sir etmaydi.

Qazilma boyliklarni qazib oluvchi kon sanoati korxonalarida yerning ahamiyati ancha yuqori bo'lib, u mehnat jarayoni sodir bo'ladigan joy va ko'mir, ruda, gaz, neft va boshqa foydali qazilma boyliklar zaxirasiga ega bo'lgan mehnat predmeti vazifalarini bajaradi. Qishloq xo'jaligida mahsulot yetishtirish jarayoni to'g'ridan-to'g'ri tuproq unumdorligiga, yerning sifatiga va foydalanish sharoitiga bog'liq. Unumdorlikni oshirish maqsadida inson yerga har xil usullar bilan ta'sir etadi: irrigatsiya va mellioratsiya ishlarini amalga oshiradi, o'g'itlar soladi, tuproqqa ishlov beradi.

Yer tuzishda bir tomondan yer turlari va almashlab ekishni, qishloq xo'jalik ekinlarini ularga mos yerlarga to'g'ri joylashtirish hisobiga tuproqning tabiiy va iqtisodiy unumdorligidan yaxshi foydalanish uchun sharoit yaratilsa, boshqa tamondan tabiatni muhofazaetish, yerni eroziyadan himoyalash, tuproq unumdorligini oshirishga qaratilgan ishlarni amalga oshirish natijasida yerning ishlab chiqarish xususiyatlari oshadi. Shuning natijasida dehqonchilik mahsulotlari, shu jumladan, chorva ozuqasini yetishtirish ko'payadi, qishloq xo'jaligida asosiy ishlab chiqarish vositasi sifatida yerning iqtisodiy ahamiyati oshadi. Bu esa o'z navbatida yer tuzishning katta iqtisodiy ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

To'rtinchidan, yer tuzishning asosiy maqsadi yerda tartib o'rnatishdan iborat bo'lib, unga hududni oqilona tashkil etish, jamoa ishlab chiqarishini va uning ayrim tarmoqlarini to'g'ri joylashtirish, xo'jalikni ratsional tarkibda tuzish va yuritish hisobiga erishiladi. Ishlab chiqarishning tashkiliy tarkibi yer massivlarining hududiy xususiyatlari (ularning xo'jalik markazlaridan uzoqligi, maydoni, shakli, bo'laklari va sh.o'.) va sifati bilan bog'lanadi.

Yer tuzish loyihalarida keltirilgan xududning tashkil etilishi bo'lajak xo'jalikning asosini tashkil etadi va uning iqtisodiy samaradorligini belgilaydi. Bu esa qabul qilingan yer tuzish yechimlarini chuqur iqtisodiy asoslashni talab etadi. Shuning uchun ham yer tuzish qishloq xo'jaligining iqtisodiy samradorligini oshiruvchi omil hisoblanadi.

Beshinchidan, yer tuzishda yer munosabatlarini tartibga solishning iqtisodiy mexanizmini joriy etish uchun axborotlar asosi tayyorlanadi, yerlarni berish va qaytarib olish amalga oshiriladi, yer egaliklari va yerdan foydalanuvchilarning yangilari tashkil etiladi va mavjudlari qayta tashkil etiladi, ularning chegaralari belgilanadi, yerlarning sifati baholanadi, yerga mulkchilik va ijara huquqlarini tasdiqlovchi hujjatlar beriladi, maxsus yer fondlari tashkil etiladi.

Bunda har bir yer bo'lagi bahoga ega bo'lishi kerak, hamma yer egalari va yerdan foydalanuvchilar yer solig'i, yerning ijara haqi, undan yer davlat va jamiyat extiyohlari

uchun olinadigan bo'lsa to'lanadigan kompensatsiya (qoplama) miqdorlari, yerdan oqilona foydalanishni rag'batlantiruvchi iqtisodiy choralar to'g'risida ma'lumot oladi.

Oltinchidan, yer tuzishning davlat maqomi uning yer resurslarini boshqarish tizimining har xil miqyoslarida (respublika, viloyat, tuman) bo'lishini taqoza etadi. Yer tuzish quyidagi vazifalarni o'z ichiga oladi:

- davlat yer kadastrini va yer monitoringi asosida axborot ta'minoti;
- yer resurslarini muhofaza qilishni va undan foydalanishni rejalashtirish va bashoratlash (prognozlash);
- yerdan foydalanishni va uni muhofaza qilishni tashkil etish;
- yerdan foydalanishni va uni muhofazalashni nazorat qilish.

Yer tuzish ishlari yer resurslarini boshqarishning barcha bosqichlarini topografik, geodezik, aerofotogeodezik, tuproq va boshqa izlanish va o'rganishlardan boshlab qamrab oladi.

Ularning natijalaridan yerni hisobga olish, ro'yxatdan o'tkazish va baholash, yer resurslaridan foydalanish va uni muhofaza qilish chizmalarini, yer tuzish chizmalarini tuzish va yer tuzish loyihalarini ishlashda foydalaniladi.

Yer tuzish davlatning umumiy rejalash va moliyalash tizimiga kirganligi uchun, barcha yer tuzish korxonalari o'z faoliyatlarini o'z xarajatlarini o'zi qoplash, foyda olish va samaradorlik tamoyillari asosida olib borishlari kerak. Demak, yer tuzishning iqtisodiy mohiyati quyidagilarda namayon bo'ladi. U:

- ijtimoiy ishlab chiqarish usulining tarkibiy qismi hisoblanadi va jamiyatning ob'ektiv rivojlanish qonunlari ta'sirida bo'ladi;
- jamiyatdagi har xil sinflar va aholi guruhlarning iqtisodiy manfaatlarini o'zida aks ettiradi;
- yerni oddiy fizik jism sifatida emas, balki, ish quroli va mehnat predmati, qishloq xo'jaligida esa asosiy ishlab chiqarish vositasi sifatida tashkil etadi, tuproqning iqtisodiy unumdorligiga ta'sir etadi;
- qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining iqtisodiy samaradorligini oshiruvchi va uni intensivlovchi omil hisoblanadi;
- yer munosabatlarini tartibga solishning iqtisodiy mexanizmini yaratish uchun zarur axborotlar asosi hisoblanadi;
- yer resurslarini boshqarish tizimining har xil miqyoslariga kiradi, rejalashtiriladi, moliyalashtiriladi, tashkil etiladi va aniq iqtisodiy vaziyatda faoliyat ko'rsatadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy taxlil, qat'iy tartib - intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bolishi kerak. Toshkent, "O'zbekiston", 2017,- 104 b.
2. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash - yurt

- taraqqiyoti va xalq farvonligini garovi. Toshkent, “O'zbekiston”, 2017.- 48b.
3. Mirziyoev Sh.M. O‘zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi. Toshkent, “O'zbekiston”, 2017. “Gazeta.uz”.
  4. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
  5. Avezbaev S., Volkov S.N. Yer tuzishni loyihalash. Darslik. T.: “Faylasuflar milliy jamiyati”, 2007. - 470 b.
  6. Avezbayev S., S.N.Volkov. Yer tuzishning ilmiy asoslari.Darslik-T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2006. - 196 b.
  7. Babajonov A.R., Raxmonov Q.R, G'ofirov A.J. Yer kadastr. T.: TIMI, 2008 - 220 b.
  8. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy taxlil, qat’iy tartib - intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bolishi kerak. Toshkent, “O‘zbekiston”, 2017,- 104 b.
  9. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farvonligini garovi. Toshkent, “O'zbekiston”, 2017.- 48b.
  10. Mirziyoev Sh.M. O‘zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi. Toshkent, “O'zbekiston”, 2017. “Gazeta.uz”.
  11. Rahmonov Q.R. Yer resurslarini boshqarish. O'quv qo'llanma. T.: TIMI, 2008.- 161 b.
  12. O‘zbekiston Respublikasi yer resurslarining holati to‘g‘risida Milliy hisobot. T.: “Yergeodezkadastr” davlat qo'mitasi, 2016. - 85 b.
  13. O‘zbekiston Respublikasining "Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to‘g‘risida"gi qonuni, O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari to‘plami. 42-son. –T.: 2004.
  14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yerdan foydalanish samaradorligini oshirish to‘g‘risida"gi Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi Farmonlari va qarorlari. -T.: O‘zbekiston, 1995.
  15. Internet saytlari: [www.Ziyo.net](http://www.Ziyo.net), [www.Lex.uz](http://www.Lex.uz), [www.Tsure.ru](http://www.Tsure.ru), [www.landkadast.com](http://www.landkadast.com),[www.guz.ru](http://www.guz.ru).